

**TALABA YOSHLARNING VATANPARVARLIK TARBIIYASI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10278411>

**Djumanazarova Zilola Obidjonovna**

*Namangan davlat universiteti Rus kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi va turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish masalalari taxlil qilishga xarakat qilingan. Muallif mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlarni va ularning barkamol insonni tarbiyalash bo'yicha zarur choralarni ko'rishga qaratilishini ta'kidlaydi. Maqolada yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish kabilar asosiy vazifalar xakida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, vatanimizning bo'lg'usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, davr talabi, vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligi, insonni bolalik chog'idan o'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilish, vatan hissi.*

**ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ**

**Джуманазарова Зилола Обиджоновна**

*преподаватель кафедры русского языка*

*Наманганского государственного университета*

**Аннотация.** *В данной статье предпринята попытка проанализировать вопросы воспитания патриотизма у молодёжи и формирования иммунитета против различных идеологических угроз. Автор подчёркивает коренные реформы, проводимые в нашей стране, и их направленность на принятие необходимых мер по воспитанию всесторонне развитой личности. Статья направлена на воспитание молодёжи в духе национальных идеалов и верности Родине, глубокое привитие в их сердцах и умах, что защита Родины - почётный и священный долг, наша древняя история и культура, независимость нашей любимой Родины и это говорит о главных задачах, таких как гордость за наших национальных героев, самоотверженно сражавшихся за их развитие и формирование чувства быть достойными их.*

**Ключевые слова.** *Воспитывать в духе верности Родине, воспитывать будущих защитников нашей Родины в духе патриотизма, требование времени, патриотизм – это глубокое уважение человека к своей семье, честь своих потомков, верность совести, долгу и своему слову, любовь к своему народу, его традициям, языку и культуре с детства, воспитанию в духе уважения, чувство Родины.*

## **PATRIOTIC EDUCATION OF STUDENT YOUTH: SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS**

**Djumanazarova Zilola Obidjonovna**

*Lecturer at the Russian Language Department  
Namangan State University*

**Annotation.** *This article makes an attempt to analyze the issues of instilling patriotism among young people and developing immunity against various ideological threats. The author emphasizes the fundamental reforms being carried out in our country and their focus on taking the necessary measures to educate a comprehensively developed personality. The article is aimed at educating young people in the spirit of national ideals and loyalty to the Motherland, deeply instilling in their hearts and minds that the defense of the Motherland is an honorable and sacred duty, our ancient history and culture, the independence of our beloved Motherland. and this speaks of the main tasks, such as pride in our national heroes who selflessly fought for their development and formation of a sense of their worth.*

**Keywords.** *To educate in the spirit of loyalty to the Motherland, to educate future defenders of our Motherland in the spirit of patriotism, the requirement of the time, patriotism is a person's deep respect for his family, the honor of his descendants, loyalty. to one's conscience, duty and one's word, love for one's people, their traditions, language and culture from childhood, education in the spirit of respect and a sense of the Motherland.*

### **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)**

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan, davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda mamlakatimiz yoshlarini, shu jumladan, yosh avlod vakillarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash biz uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi tashkil etilayotgan va o'tkazilayotgan tadbirlarning yoshlar ongi va qalbiga ijobiy ta'sir etib, ularning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi faolligi oshgani, vatanini himoya qilish hamda uning xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglab yetgani, davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida har qanday xizmatga doimo shay turish pozitsiyasi shakllangani bilan belgilanadi. Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng

ko'lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Анализ литературы и методология /Literature analysis and methodology). Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim- tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida shunday yozilgan: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar" [1].

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-241- son Qarorida: "...o'quvchilar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy -tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishlari uchun sharoitlarni yaratishda sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlarni keng jalb etish", vazifasi qo'yilgan. [2].

"Vatan ostonadan boshlanadi" degan chuqur ma'noli ibora mavjud. Bundan Vatan tuyg'usini oiladan shakllanishi kelib chiqadi. Haqiqatan, vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to'kilgan yerdan boshlanadi. Shunday ekan, Vatan tuyg'usini tarbiyalashni oiladan boshlashishimi zarur. Barkamol avlodni shakllantirishda oilaning o'rne bo'lak, chunki, inson avvalo oila bag'rida unib- o'sadi va shaxs sifatida shakllanadi. Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida: "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir.... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi" deb yozgan. [3].

Bugungi yoshlarning dunyoqarashi, fikrlashi zamon bilan hamnafas. Axborot asri ularni tez ulg'aytirmoqda. Eng yomoni, ularning oppoq qog'ozdek qalbiga axborotning bari yozilyapti. Oqi ham, qorasi ham. Murg'ak qalb ularni bir- biridan ajrata olmaydi. Zamonning g'oyat murakkab va tahlikali jihati ham shunda. Shu sababli davlat rahbari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, turli zararli ta'sirlardan asrash tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini doimo ta'kidlab keladi. Vatanparvarlik tuyg'usi tarbiyasi tamoyillari o'z mohiyatiga ko'ra obyektivdir. Ular haqiqiy holat, real aloqa va munosabatlari aksi, mamlakat mudofaasiga xalqni tayyorlash bo'yicha davlat va ijtimoiy tashkilotlarni ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat ifodasidir.

Natijalar (Результаты/Results). Bugungi kunda yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Qurolli kuchlar tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalar doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmogda.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2019 yil 28 iyun kungi «O'smirlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat

xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida»gi qarori [4] bilan Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya tarkibida «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseylari tashkil etildi. «Temurbeklar maktabi» bitiruvchilariga O'zbekiston oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi o'tkazadigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning 30 foizi miqdorida, respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi miqdorida qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz hamda harbiy akademik litseyni imtiyozli diplom bilan tugatgan bitiruvchilarga tarkibida «Temurbeklar maktabi» bo'lgan vazirlik va idoralarning oliy harbiy yoki ixtisoslashtirilgan bilim yurtlariga test sinovlarisiz, harbiy- kasbiy saralash tadbirlaridan o'tish natijalari bo'yicha kirish huquqi berildi. Farmon bilan «Temurbeklar maktabi» harbiy- akademik litseylarini tashkil etish va ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora- tadbirlar dasturi («yo'l xaritasi») tasdiqlanib, unda harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, xalqiga sodiq bo'lgan, vatanga xizmat qilishga tayyor turgan zakiy nomzodlar respublikamizning oliy harbiy, maxsus va boshqa ta'lim muassasalariga kirishini ta'minlash maqsadida «Ma'naviyat asoslari» darsi bo'yicha o'quv dasturi, rejaları va o'quv-uslubiy komplekslari ishlab chiqildi. O'quvchilarda axloqiy- psixologik barqarorlik va kasbiy vazifalarni bajarishga shay turishni shakllantirish maqsadida ularni psixologik qo'llab -quvvatlash yo'lga qo'yilganini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatida «O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish ni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm- ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur» deb ta'kidlagani bejiz emas.[5]

Murojaatda Prezidentimiz mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yib, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerakligini, O'zbekiston yoshlar ittifoqi «O'zbekiston yoshlari – 2025» konsepsiyasini ishlab chiqishi unda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarurligini bildirdi.

Shu sababli jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi, «O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!» degan shior qalbimizdan chuqur joy olishi kerak. Yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi tashkil etilayotgan va o'tkazilayotgan tadbirlarning yoshlar ongi va qalbiga ijobiy ta'sir etib, ularning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi faolligi oshgani, vatanini himoya qilish hamda uning xavfsizligi uchun

fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglab yetgani, davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida har qanday xizmatga doimo shay turish pozitsiyasi shakllangani bilan belgilanadi.

Muxokama(обсуждение,discussion).Har qanday ezgu niyat, orzu va maqsadning amalga oshirish, avvalo, jamiyatdagi mustahkam tinchlik va xotirjamlikka bog'liq. Bu barcha zamonlarda o'z isbotini topgan haqiqatdir. Sir emaski, hozir dunyoning ayrim mamlakatlarida siyosiy beqarorlik hukm surayotgan bo'lsa, boshqa bir yurtida terrorchilik, narkobiznes kabi millat tanlamas illatlar xalqaro xavfsizlikka tahdid solmoqda. Bu kabi holatlar esa bizning tinch va farovon hayotimizning mustahkam asosi bo'lgan istiqbolimizga shukrona qilish va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga undaydi. O'tgan chorak asr yillarida yurtimizda taraqqiyot asosida barqaror tinchlikni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yuksaltirish borasida ulkan natijalarga erishildi. Ana shu yutuqlarimizda bugungi zamon talablari asosida shakllangan qurolli kuchlarimizning ham alohida o'rni bor. Chunki milliy armiyamiz yurtimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolatidir. Bu Davlatimizning Asosiy qonunida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, unda qayd etilishicha, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi". Shu maqsadda 1991 yilda O'zbekiston Mudofaa vazirligi tashkil etildi. 1992 yil 14 yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim tadbirga qo'l urildi. Respublikamiz hududidagi barcha harbiy qism va bo'linmalarni O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1993 yildan e'tiboran 14 yanvar yurtimizda "Vatan himoyachilari kuni" deb e'lon qilindi.[6]

Xulosalar. (Заключение/Conclusion). Hozirgi paytda vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni Respublikamizning o'quv muassasa ta'lim tizimi bilan yangilanishi, mamlakat ijtimoiy – rivojlanishi jadallashuvi, Vatan himoyasidagi insoniy omillar o'rnining o'sib borishi va jangovar mehnat tashkilidagi keskin o'zgarishlari bilan yuzaga kelgan an'analar bilan boyishi kerak.Vatanpavarlik tarbiyasi o'z o'rnida albatta jismoniy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya yetarli darajada yoshlar ma'naviy rivojlanishi, unda yuqori ma'naviy xislatlarning shakllanishiga yordam beradi. Jismoniy chiniqish jarayonida yigitlar amalda qiyinchiliklarni yengishga, chidamli, botir va qat'iy bo'lishga o'rganadi. Sport bilan shug'ullanib, yigitlar o'zida mardlik, botirlik, iroda, qat'iylik, o'z kuchiga ishonchni ishlab chiqadi – bu xislatlar Vatanning mohir himoyachisi uchun juda zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: "O'zbekiston", 2017.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 11 maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-241-son Qarori
- 3.Fitrat. "Oila". – T., "Ma'naviyat", 1998. – B.8.
- 4.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz),2019 yil 29.06.

5."Xalq so'zi", 2020 yil 25 yanvar

6.O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 yil, #1, 27-modda.